Korxonalarda personalni boshqarishda mehnat resurslari rentabelligining omilli tahlili M.Q. Pardayev, I.T. Abdukarimov, B.I. Isroilovlar [11] tomonidan atroflicha tadqiq etilgan va ular mehnat resurslari rentabelligiga ta’sir etuvchi quyidagi omillarni aniqlagan:

- ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;
- xodimlarning umumiy soni;
- oliy ma’lumotli xodimlar soni;
- o‘rta maxsus ma’lumotli xodimlar soni;
- o‘rta ma’lumotli xodimlar soni;
- to‘liqsiz o‘rta ma’lumotli xodimlar soni.

Yuqoridagi talqinlarni umumlashtirib aytishimiz mumkinki, personal menejmenti – bu kadrlar bilan ishlashni tashkil qilishning o‘zaro bog‘liq texnikasi, shakllari, usullari to‘plamidir va ular:

*birinchidan,* tashkilotning boshqaruv xodimlari nomidan o‘tkaziladi;

*ikkinchidan,* xodimning jismoniy va intellektual imkoniyatlaridan samarali va to‘liq foydalanish uchun shart-sharoitlarni ta’minlashga qaratiladi;

*uchinchidan,* tashkilotning ish faoliyatini yaxshilashga va samaradorligini oshirishga qaratiladi.

Shunday qilib, ba’zi mualliflar texnik, ma’muriy yoki shaxsiy madaniy quyi tizimlarni quyi tizim sifatida ajratadilar. Boshqalari korxonalarni boshqarishda ikki qismni ajratib ko‘rsatadilar: faoliyatni boshqarish va inson resurslarini boshqarish. Mualliflarning aksariyati personalni boshqarish tizimining xususiyatlarini korxona umumiy boshqaruvining quyi tizimi sifatida ko‘rib chiqadilar va quyidagilarni ta’kidlaydilar: obyekt va subyekt, tizimning maqsadlari, vazifalari, uning funktsiyalari va tuzilishi, ishlash tamoyillari va usullari.

Korxona xodimlarini boshqarish tizimining predmeti va obyektini ko‘rib chiqamiz. Personalni boshqarish subyekti – bu yechimlarni bevosita ishlab chiqadigan va amalga oshiradigan menejer yoki boshqaruv apparati xodimi. Xodimlarni boshqarish obyekti menejment yo‘naltirilgan element. Bunday holda, bu alohida ishchilar yoki jamoalar hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarga asoslanib, fikrimizcha, personalni boshqarish korxona va tashkilotlarda faoliyat ko‘rsatayotgan personaldan korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yo‘lida samarali foydalanish nazarda tutilib amalga oshiriladigan amaliy faoliyat turi sifatida qaralishi lozim.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, yog‘-moy sanoatida personalni boshqarishni takomillashtirishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og‘zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish orqali tegishli yo‘nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o‘rganish jarayonida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma’lumotlarni tizimlash bo‘yicha mahsus yondoshuvlar, ya’ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlillash kabi usullar qo‘llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yog‘-moy sanoati korxonalarida personalni boshqarish bu bir qator o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar va faoliyat sifatida amalga oshiriladi, korxonada xodimlarini shakllantirish, rivojlantirish va ulardan foydalanishga ta’sir etish mexanizmlari, tamoyillari, shakllari va usullari ishlab chiqiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning yog'-moy sanoatida umumiy qiymati 155 million dollar bo'lgan 26 ta investisiya loyihasi amalga oshiriladi, shundan, 32 million dollari to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardir [16].

Bu mamlakatning yog'-moy korxonalari ishlab chiqarish quvvatlarining o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Agar 2021-yilda asosiy e'tibor paxtani qayta ishlashga qaratilgan bo'lsa, 2022–2023-yillarda kungaboqar, soya va boshqa moyli ekinlarni qayta ishlash ulushini ortishiga xizmat qiladi.

"O'zyog'moysanoat" aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 362 ta yog'-moy korxonasi faoliyat yuritmoqda. Mavjud quvvatlar yiliga 450 ming tonna o'simlik yog'i, 64 ming tonna margarin mahsulotlari, 109 ming tonna kir sovun ishlab chiqarish imkonini bermoqda [16].

2022-yilda yog'-moy korxonalari tomonidan 6,13 trillion so'm miqdorida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, bu borada o'tgan yilga nisbatan 108,2 foiz o'sish sur'atiga erishilgan. Jumladan:

- 201 ming tonna o'simlik moyi (o'sish sur'ati 103,6 foiz);
- 25,5 ming tonna margarin mahsulotlari (o'sish sur'ati 105,5 foiz);
- 18,9 ming tonna xo'jalik sovuni (o'sish sur'ati 105,1 foiz);
- 354 ming tonna shrot (o'sish sur'ati 112 foiz);
- 238,1 ming tonna sheluxa (o'sish sur'ati 107,3 foiz);
- 98,7 ming tonna omuxta yem (o'sish sur'ati 112,5 foiz) ishlab chiqarildi.

Shuningdek, 441 milliard so'mlik boshqa mahsulotlar tayyorlandi va xizmatlar ko'rsatildi.

Shu o'rinda davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Navbatdagi masala – 2023-yilda tayyor mahsulotlar eksportini qo'shimcha 4 milliard dollarga oshirish asosiy maqsadimiz bo'ladi.

Bu yil boshlangan "Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturi o'z samarasini bermoqda. Umuman, 2023-yilda eksport hajmi tariximizda ilk bor 23 milliard dollardan ortadi", deb ta'kidlab o'tganlari bu borada amalga oshiriladigan ishlar ko'lamining kattaligini bildiradi.

Xususan, "O'zyog'moysanoat" uyushmasi tizimidagi korxonalar tomonidan 2022-yilda prognozdagi 23,0 million AQSh dollari o'rniga 39,3 million AQSh dollari miqdorida yog'-moy mahsulotlari eksporti amalga oshirilgan. Natijada mahsulot eksporti bo'yicha joriy yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichi 171 foizga bajarilishi ta'minlangan [17].




1 - r a s m: "O'zyog'moysanoat" uyushmasi tizimidagi korxonalarining 2022-yilda yog'-moy mahsulotlari eksporti haqidagi ma'lumoti, (ming dollar)

Ushbu davrda yog'-moy mahsulotlari asosan quyidagi davlatlarga eksport qilingan(1-rasm):
Afg'oniston – 25 million 667 ming dollar.
Turkmaniston Respublikasi – 4 million 239 ming dollar.
Tojikiston Respublikasi – 4 million 142 ming dollar.
Qozog'iston Respublikasi – 1 million 553 ming dollar.
Qirg'iziston Respublikasi – 1 million 76 ming dollar.

Bundan tashqari, Rossiya, Gruziya, BAA, Mongoliya, AQSh, Niderlandiya, Singapur, Iroq, Turkiya va Ozarbayjon kabi davlatlarga ham yog'-moy mahsulotlari eksporti amalga oshirilgan.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Hozirgi kunda yurtimizda 240 tadan ziyod katta va kichik yog‘-moy korxonalari mavjud bo‘lib, ular tomonidan yiliga 60 turdagi va 200 dan ortiq assortimentdagi yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Korxonalardan 80 tasida o‘simlik moyi, 38 tasida margarin mahsulotlari, 25 tasida mayonez, 94 tasida xo‘jalik va atir sovun va 3 tasida distillangan glitserin mahsulotlari ishlab chiqarmoqda. Ishlab chiqarilayotgan yog‘-moy mahsulotlari UZTR 520-023:2017:2017 «Yog‘-moy mahsulotlari xavfsizligi to‘g‘risida»gi texnik reglament talablariga to‘liq javob beradi. Korxonalarda ISO 9001:2015 va ISO 22000 xalqaro sifat standartlari joriy etilgan.

Shuningdek, o‘rik, uzum, qovoq, tarvuz, anor, zig‘ir va kunjutdan yiliga 62 ming tonna noan’anaviy xom ashyo olish va uni qayta ishlash hisobiga 16 ming tonnadan ziyodroq shifobaxsh moy ishlab chiqarish imkoniyati mavjud [12].

Yog‘-moy korxonalarini har tomonlama rivojlantirish, yangi zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va sohada yagona siyosat yuritilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4118-sonli «Yog‘-moy tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to‘g‘ri-sida»gi qarori [4] qabul qilingan bo‘lib, mazkur qarorga asosan O‘zbekiston Respublikasi yog‘-moy sanoati korxonalari uyushmasi tashkil etilgan.




2 - r a s m: “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasi ijro apparati tashkiliy tuzilmasi [12]

1-rasm ma’lumotlaridan boshqaruv xodimlarining umumiy soni 35 ta ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasida bitta boshqaruv raisi o‘rinbosari va unga bo‘ysinuvchi investitsiyalar va innovatsiya texnologiyalarini joriy qilish boshqarmasida 5 ta xodim, Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishini monitoring qilish boshqarmasida 5 ta xodim, xom-ashyo bazasini rivojlantirish boshqarmasida 3 ta xodim, standartlashtirish, sifatni monitoring qilish va baholash bo‘limida 2 ta xodim faoliyat yuritadi.

Strategik tahlil va prognozlashtirish boshqarmasida 3 ta xodim, marketing, eksport va logistika boshqarmasida 3 ta xodim, moliya, buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limida 3 ta xodim faoliyat yuritadi va yog‘-moy sanoati tarmog‘i kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Shuningdek, yuridik bo‘limda 2 ta, murojaatlar va ijro intizomini nazorat qilish xizmati, personalni boshqarish, axborot-kommunikatsiya, axborot xizmati-matbuot kotibi, maxsus qism va ishlar boshqarmasida bittadan xodim faoliyat yuritmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasida yordamchi (xizmat ko‘rsatuvchi va texnik) xodimlar soni me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida belgilanadi. “O‘zyog‘moysanoat” uyushmasi tarkibida 10 mingdan ziyod 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar faoliyat olib bormoqda. Ularning 22 foizi boshqaruv lavozimlarida xizmat qilmoqda [14].

Yuqorida aytib oʻtilganidek, “Oʻzyogʻmoysanoat” uyushmasi tarkibida yogʻ-moy ishlab chiqaradigan 240 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritib, ular 15 mingga yaqin odamni ish bilan taʼminlagan.

2-rasm maʼlumotlari asosida inobatga olib, “Oʻzyogʻmoysanoat” uyushmasida kadrlarni tayyorlashga boʻlgan real ehtiyojni va istiqbolli yoʻnalishlarni aniqlash, mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish boʻyicha oʻquv dasturlarini takomillashtirishda ishtirok etish, mazkur sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish zarur.

Jahon bozorida noanʼanaviy moylar xaridorgirligi va narxining yuqoriligini hisobga olsak, mahalliy yogʻ-moy mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun ulkan imkoniyat ekanligidan dalolat beradi. Shu bois Oʻzyogʻmoysanoat uyushmasi tomonidan meva danaklari va poliz mahsulotlari urugʻlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan 5 ta kichik korxona tashkil qilingan [12].

Hozirda, noanʼanaviy yogʻ-moy mahsulotlarini koʻpaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida yogʻ-moy sanoati korxonalarini raqamli texnologiyalar bilan qurollantirish zarur. Buning uchun, ishchilarni informatsion texnologiyalarga oʻqitish va malakasini oshirish, ishlab chiqarish, taʼlim va fan integratsiyasini taʼminlash, ish bilan taʼminlangan mutaxassislarni davriy ravishda malakasini oshirib borishni taʼminlash zarur.

Shuningdek, yogʻ-moy tarmogʻini boshqarishning yagona tizimining yoʻlga qoʻyilmaganligi, xususan tarmoqda personalni boshqarishni samarali mexanizmi yoʻlga qoʻyilmaganligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini nazorat qilish mexanizmining samarasizligi bilan bogʻliq muammolarning mavjudligi ilgʻor texnologiyalarni oʻzlashtirishga, investitsiyalarni jalb qilish va tarmoqning jadal rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Xom ashyo bazasining chegaralanganligi oqibatida tarmoq korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi 50 foizdan oshmaydi, bu davlat ishtirokidagi yogʻ-moy korxonalar faoliyatining samaradorligi va raqobatbardoshligining pasayishiga olib kelmoqda [4].

Binobarin, “Oʻzyogʻmoysanoat” uyushmasi faoliyatining asosiy yoʻnalishlari boʻlib, moyli xom ashyolarni qayta ishlash, yogʻ-moy mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarni yagona kompleksga birlashtirish, tarmoqni rivojlantirishning oʻrta va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish, ichki bozorni sifatli, narx boʻyicha raqobatdosh yogʻ-moy mahsulotlari bilan taʼminlash, yogʻ-moy sohasida faol investitsiya siyosatini yuritish, investitsiyalarni, shu jumladan, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish hisoblanadi.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4118-sonli “Yogʻ-moy tarmogʻini yanada rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish toʻgʻrisida”gi qarorining [4] 13-bandiga asosan “Yogʻ-moy sanoati tarmogʻi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ilmiy-amaliy markazi” tashkil etilib, 2019-yilda ilmiy-amaliy markazda 203 nafar mutaxassislar oʻz malakalarini oshirgan. Ilmiy markazning masʼul xodimlari “Oliya”, “PET agro oil”, “Hayot xusni” kabi bir qator korxonalarda xizmat safarida boʻlib, mutaxassislari uchun oʻquv mashgʻulotlari oʻtkazgan. Shuningdek, kichik yogʻ-moy korxonalariga sinov laboratoriyalarini tashkil etishda va ularda faoliyat koʻrsatayotgan mutaxassislar malakasini oshirish amaliy yordam koʻrsatilgan. Markaz tomonidan yogʻ-moy korxonalariga texnika xafsizligi talablarini taʼminlash, yordamchi materiallar sarfini belgilash, nostandart texnikalarni qayta ishlashda zarur boʻladigan texnologik rejimlarni tanlash, xodimlarni atestatsiyadan oʻtkazish ishlarini tashkil etish hamda texnologik reglamentlarni ishlab chiqish boʻyicha xizmatlar koʻrsatilgan [13].

Oʻzbekistonda yogʻ-moy sanoati sohasini kompleks rivojlantirishning sakkizta ustuvor vazifasi belgilab olingan, jumladan:

- har bir rahbar-xodim uchun Murojaatnomada keltirilgan vazifalarni oʻzlashtirishni ish dasturi etib belgilash;
- butun dunyoda davom etayotgan koronavirus pandemiyasi davrida ham ishlab chiqarish korxonalarining uzluksiz va samarali faoliyat koʻrsatishini taʼminlash;
- sohada faoliyat yuritayotgan va bilim olayotgan yoshlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash jumladan, oliy oʻquv yurtlari va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi jarayoniga jiddiy eʼtibor qaratish;
- iqtisodiyotimizdagi tarkibiy oʻzgarishlar, islohotlarda faol ishtirok etgan xolda sogʻlom raqobat muhitini takomillashtirish;
- raqobatbardosh texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan investitsiya loyihalar salmogʻini oshirish;
- oziq-ovqat xavfsizligi va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish borasida korxonalar bilan izchil tadbirlarni olib borish;
- kichik va xususiy sektor korxonalarining rivojlanishiga har tomonlama koʻmaklashish;
- ishlab chiqarishga raqamli texnologiyalarni joriy etgan holda korruptsiyaning har qanday koʻrinishiga murosasiz munosabatda boʻlish masalalari shular jumlasidan hisoblanadi.

Yog‘-moy sanoati korxonalarida samaradorlikni ta’minlash resurslar cheklangan sharoitda sarf qilingan xarajatlar evaziga mahsulot yaratilishiga qarab korxonaning iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilaydi. Shuning uchun ham individual, jamoa, qolaversa, davlat miqyosida qaror qabul qilishda sotsial vazifalarni hal qilishda samaradorlikni ta’minlanishiga diqqat qaratish obyektiv zaruriyatga aylanadi.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jarayonida masofadan mehnat qilish imkoniyatini ham yaratildi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, masofaviy mehnatning tarqalishini cheklab turadigan omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- dastlabki joriy qilish jarayonida IT infratuzilmasi va dasturiy ta’minot xarajatlari ortishi;
- bir nechta ulangan qurilmalar bilan tarmoqni boshqarishning murakkabligi;
- qo‘shimcha xavfsizlik talablari, kompaniya xavfsizlik xizmatlarining qarshiliklari;
- faoliyatning ayrim sohalarida masofadan turib ishlashning imkoni yo‘qligi;
- ish beruvchilar orasida keng tarqalgan stereotip: samarali ish bu - ofis ishi;
- ko‘plab ish beruvchilar aniq biznes jarayonlarini yaratishga qodir emasligi va istamasligi;
- samarali KPI tizimi va motivatsiyasining yo‘qligi;
- xodimlarning sodiqligi va korporativ madaniyatiga qo‘shilmaslik haqida tashvishlar.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida masofadan turib ishlash amaliyotiga umumiy ijobiy baho ham berish mumkin, xususan ish beruvchilar tomonidan xodimlarga quyidagi qulayliklar yaratilishi mumkin:

- korxona xarajatlarini tejash;
- ish joyiga bog‘lanmagan holda yaxshi mutaxassis tanlab olish imkoniyati;
- xorijiy mutaxassislar va uzoqdagi mijozlar bilan masofaviy ishlash, bu xizmat safariga borishdan ancha arzonga tushadi;
- bevosita yaqin muloqotda ishlaydigan yuqori malakali mutaxassislar yordamida yanada sifatliroq xizmat ko‘rsatish;
- mehnat samaradorligi, mijozlarga tunu-kun xizmat ko‘rsatish;
- ish joyiga borish uchun vaqt sarflanmaydi (yo‘ldagi tirbandlik, ob-havo sharoitlari), ish beruvchi uchun elektr energiyasi va ofis binolari ijarasida, ish joyini jihozlash borasida tejash.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikamizda hozirgi kunda yog‘-moy sanoati korxonalarining umumiy iqtisodiy va moliyaviy barqarorligi, to‘lov qobiliyatini o‘rganish natijalari mazkur korxonalarda boshqaruvni innovatsion takomillashtirish va uni moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlashning ichki manbalari yildan-yilga kamayib bormoqda.

Ammo yog‘-moy sanoati korxonalarining bozordagi mavqei va barqaror iste’molchilar segmentiga ega ekanini hamda yildan-yilga to‘la quvvat bilan ishlash imkoniyati mavjudligini hisobga olganda, tarmoqning innovatsion boshqaruvini yo‘lga qo‘yish imkoniyati mavjudligini asoslab beradi. Bu borada, yog‘-moy sanoati korxonalaridagi ma’nan va jismonan eskirgan asosiy vosita va jihozlar korxonani kelajakda to‘la quvvat bilan ishlashiga monelik qilishini hisobga olib, tarmoqni boshqarishda yangi innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etilishini amalga oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, yog‘-moy sanoati korxonalarida raqamli iqtisodiyot sharoitida personalni boshqarish tizimining o‘ziga xos yo‘nalishlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- korxonada mehnat unumdorligini oshishi;
- inson kapitali, mehnat sharoiti, mehnat jarayonlarini loyihalashtirish, mehnatni me’yorlashtirish, personal sonini rejalashtirishn optimallashtirish;
- kadrlarni tanlash, o‘qitish va attestatsiyadan o‘tkazish jarayonlarini rivojlantirish;
- personalni motivatsiyalash va rag‘batlantirishni oshirish;
- mehnat haqi va daromadlarini shakllantirish;
- ishchilarning jamoadagi o‘zaro munosabatlarini mustahkamlash;

- personalni boshqarishda marketing tadqiqotlarini olib borish;
- personal konrolingini yuritish;
- personalni boshqarishni tashkil etish va takomillashtirish.

Shundan kelib chiqib, personalni boshqarish tizimini ikki qismga bo'lish mumkin:

1. Personalni boshqarishning iqtisodiy tizimi, bu jarayonda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish muammolari, taqsimot, moddiy boyliklarini ayriboshlash va iste'mol qilish muammolari yetakchilik qiladi;
2. Personalni boshqarishning ijtimoiy tizimi, ya'ni personalni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Personalni boshqarish usullarida inson kapitalining roli xo'jalik jarayonini pozitsiyalarda uning ikki afzalligidan kelib chiqadi:

inson xo'jalik yuritish tizimining resursi sifatida – ishlab chiqarish va boshqaruv jarayoni elementi sifatida ya'ni inson o'z ehtiyojlariga, qadriyatlariga ega bo'lgan shaxs sifatida – boshqaruvning asosiy subyekti hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. 05.10.2020 https://lex.uz/docs/5030957
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori PQ-4699-son 28.04.2020-y. https://lex.uz/docs/4800657
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4118-sonli «Yog'-moy tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to'g'ri-sida»gi qarori. https://lex.uz/docs/4163941
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi 2022-yil 12-dekabr https://president.uz/uz/lists/view/5774
6. Dresvyannikov V.A. - Sentr otsenki i razvitiya personala (Assessment and Development Center): sozdanie i texnologiya rabot - Rusayns - 2017 - 221s. - ISBN: 978-5-4365-2242-5 - Tekst elektronnы // EBS BOOKRU - URL: https://book.ru/book/927768
7. Веснин В. Практический менеджмент персонала. - М.: Юрист,2009. -495 с.
8. Егоршин П. Карьера одаренного менеджера. - М.: Логос, 2008. -408 с.
9. Одегов, Ю. Г. Управление персоналом : учебник и практикум для академического бакалавриата / Ю. Г. Одегов, Г. Г. Руденко. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2019. – 467 с. – (Бакалавр. Академический курс). – ISBN 978-5-9916-8710-2. – Текст : электронный // ЭБС Юрайт [сайт]. – URL: https://urait.ru/bcode/431878 (дата обращения: 28.01.2021).
10. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Zokirova N.Q.. Personalni boshqarish: Darslik. – Toshkent. „Sharq», 2008.
11. Pardaev M.K., Abdukarimov I.T., Isroilov B.I. Korxonaning iktisodiy salohiyati tahlili. – Toshkent:Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2003. – 256 b.
12. https://yogmoy.uz/uz/page/view?slug=uzegmojsanoat-uusmasi-bujica-2019-jilning-anvar-dekabr-ojlarida-iktisodij-islootlarning-bazarilisi-tugrisida-malumot
13. https://yogmoy.uz/uz/page/view?slug=izro-apparati
14. https://kun.uz/news/2017/07/25/uzpahtasanoateksport...
15. Yusupov, M. (2022). Respublikada yog'-moy sanoatini rivojlantirish yo'nalishlari. Архив научных исследований, 4(1). извлечено от https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2788
16. https://www.apk-inform.com/ru/news/153355717.
17. https://yogmoy.uz/uz/post/view?slug=613-trillion-sum...
18. https://yogmoy.uz/uz/post/view?slug=2022-yilda-393-million...

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.